

GLOBALLASHUVNING INGLIZ TILIGA TA'SIRI

*D. Avloqulova*¹

Annotatsiya:

Ushbu maqolada hozirgi kunda globallashuvning ingliz tiliga qanchalik ta'sir ko'rsatayotgani, ingliz tili kommunikatsiya vositasiga aylangani va xalqaro til sifatida shakllanganligi haqida so'z boradi. Bundan tashqari, ingliz tili lug'at tarkibining boyishi, ushbu tildan foydalanish jarayonida talaffuz va grammatik jihatdan o'zgartirishlar kiritilishi va shu bilan birgalikda ingliz tilining boshqa tillarga ta'siri yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: globallashuv, xalqaro til, kommunikatsiya, madaniy ta'sir, umumiy aloqa tili, yangi so'zlar.

Til-ijtimoiy hodisa hisoblanadi. Dunyodagi barcha millatlar o'z tillariga ega va odamlar bir-birlari bilan suhbatlashish va bir-birlarini tushunish uchun tildan foydalanishadi. Shuningdek, jamiyatning quroli til hisoblanadi. Til haqida so'z borganda "globallashuv" tushunchasini keltirib o'tish joiz. Globallashuv bu dunyo mamlakatlari, xalqlari va madaniyatlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikning ortib borish jarayonidir. Bu jarayon natijasida tillarda turli xil grammatik o'zgarishlar kiritilishi, yangi so'zlar paydo bo'lishi kabi holatlar kuzatilmoqda, bu esa o'z navbatida lingvistik chegaraning yo'qolishiga sabab bo'ladi. Ingliz tili asosiy xalqaro kommunikatsiya tili sifatida shakllangan desak adashmagan bo'lamiz, albatta. Va bu tilga boshqa xorijiy tillardan yangi so'zlar ham kirib kelgan.

Avvalo, ingliz tilidagi so'zlar haqida gap ketganda, o'zi ingliz tilida qancha so'zlar mavjud degan savol tug'ilishi tabiiy hol. Shu savolga javob sifatida keltirib o'tish mumkinki, ingliz tilida jami nechta so'z borligini aniq aytish qiyin, negaki til doimiy ravishda rivojlanadi va uning tarkibi o'zgaradi va unga bir qancha yangi so'zlar qo'shilib, tildagi so'zlarning soni ortib boraveradi. Biroq jami so'zlar haqida taxminiy raqamlarni ham ko'rib chiqish mumkin: Oxford English Dictionary (OED) da keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, ingliz tilida 600,000 dan ortiq so'zlar mavjud bo'lib, bu sonlar tarixiy va deyarli muomaladan chiqqan so'zlarni ham o'z ichiga oladi. Lekin ingliz tilidagi so'zlar har qaysi manbada har xil keltirib o'tilgan. Masalan, yuqorida keltirib o'tilgan Oxford English Dictionary lug'atida 600,000 dan ortiq deyilgan bo'lsa, Merriam-Webster lug'atida bugungi kunga qadar mavjud bo'lgan so'zlar jamlanmasi 470,000 atrofida ekanligi qayd etilgan. Bu raqamlar bilan bog'liq ma'lumotlarni yanada kengaytiradigan bo'lsak, Cambridge va Collins lug'atlariga tayanishimiz joiz. Ushbu manbada yuqoridagi raqamlar keskin qisqarganini ko'rishimiz mumkin va buning sababi ular faqat kundalik hayotda ishlatiladigan so'zlarni hisoblash chiqishlaridadir.

Bugungi kunda globallashuv natijasida ingliz tilidagi o'zgarishlar haqida fikr yuritar ekanmiz, globallashuv tufayli ingliz tilidagi lug'atlarning kengayishi ya'ni ushbu tilga boshqa xorijiy tillardan ham yangi so'zlar qo'shilishini aytib o'tish maqsadga muvofiq. Masalan, "deepfake" so'zini oladigan bo'lsak, bu so'z tarkibida 2 asos ya'ni mustaqil ma'no anglatuvchi so'zlar mavjud. Izohtirishimiz, "deep" so'zining asl ma'nosi "chuqur" ya'ni "deep learning" iborasi "chuqur o'rganish" ma'nosida qo'llaniladi, "fake" so'zi esa "soxta" ma'nosini anglatadi. Bular ingliz tilining o'zidan olingan yangi so'zlardir. Boshqa tillar bilan aloqasiga to'xtalib o'tsak, fransuz tilidan ingliz tiliga juda so'zlar kirib kelgan. Siz ko'p eshitgan va yod bo'lib ketgan fashion, government, salad, restaurant, opera kabi so'zlar aslida fransuz tilidagi so'zlar hisoblanadi. Bu so'zlar 1066-yildagi Norman bosqini natijasida fransuz tili ingliz tiliga ta'sir ko'rsatishi oqibatida paydo bo'lgan. Bu mavzuda yapon va xitoy tillari ham chetda qolmaydi. Yapon va xitoy tillaridan ingliz tiliga, asosan, texnologiya, iqtisod va madaniyat bilan bog'liq so'zlar kirib kelgan. Yangi so'zlar qo'shilishi jarayoni faqat ingliz tilida emas, balki o'zbek tilida ham yuz beradi ya'ni bunda marketing va startup kabi biznes bilan bog'liq so'zlar bilan yuzlashamiz. Bu esa ingliz tilining o'zbek tiliga ko'rsatayotgan madaniy ta'sirining yaqqol namunasidir.

Globalizatsiya va texnologiyalarning rivojlanishi natijasi ingliz tili yuqori mavqega ega bo'ldi va hozirgi kunda ingliz tiliga bo'lgan ehtiyoj, xohish kundan kunga ko'payib bormoqda. Hattoki, ingliz tili ba'zi millat vakillari orasida va bir qancha davlatlarda umumiy aloqa tili sifatida shakllanishga ham ulgurdi desak, adashmagan bo'lamiz. Hozirda xalqaro tashkilotlar, bir qancha kompaniyalar hujjatlari va ko'plab jurnallar ingliz tilida olib borilmoqda. Globalizatsiya natijasida ingliz tilida sodir bo'lgan o'zgarishlarni jamlab aytadigan bo'lsak, ingliz tiliga bo'lgan talab keskin oshdi ko'plab davlatlarda ushbu til ikkinchi til yoki asosiy kommunikatsiya tili sifatida ham shakllanishga ulgurdi. Bir qancha brendlar va kompaniya nomlari ingliz tilida yuritilishi aholi orasida ingliz tiliga bo'lgan qiziqishni yanada uyg'otdi va e'tibor qaratadigan joyi, avvalgi holatga nisbatan so'nggi yillarda odamlar

¹ Avloqulova Dilnoza Ortiq qizi, Samarqand Davlat Chet tillari Instituti Ingliz tili fakulteti II bosqich talabasi

ingliz tilidagi so'zlarni talaffuz qilishda qiyinchiliklarga duch kelishmayapti va bu ular ingliz tilini o'zlarining ikkinchi tillari sifatida qabul qilishgandek go'yo.

Xulosa qilib aytganda, globalizatsiya jarayoni ingliz tiliga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Unga ko'ra, ingliz tili bir qancha xorijiy tillardan yangi so'zlar qabul qildi va o'z so'z boyligini yanada kengaytirdi, oqibatda unda grammatik o'zgarishlar paydo bo'ldi va shu bilan birgalikda u boshqa tillarga o'zining ta'sirini ko'rsatibgina qolmay bir qancha davlatlarda ikkinchi til sifatida shakllanishga ham ulgurdi. Kelgusi yillarda ham globallashuv natijasida ingliz tili yanada kuchayadi uning mavqei yuqori pog'onalariga ko'tarilishda davom etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1]. D.Kristal (2003). *Ingliz tili-global til sifatida(2-nashr)*. Kembrij universiteti nashriyoti.
- [2]. T.MakArtur (1998). *Ingliz tillari*. Kembrij universiteti nashriyoti.
- [3]. *Oxford Dictionaries. (2023). Oxford School Dictionary*. Oxford University Press.
- [4]. Merriam-Webster. (2023). *Merriam-Webster's Collegiate Dictionary(11-nashr)*. Merriam-Webster, Inc.
- [5]. J.Jenkins (2009). *Jahon ingliz tillari: Talabalar uchun qo'llanma(2-nashr)*. Routledge nashriyoti.